(8). Russo, J.J. Yuliya yoki yangi Heloise. 1993 [elektron resurs]. Kirish rejimi: http://ino-lit.ru/lit/text/ 2433/ 57776/Rousseau/yuliya-ili-novaya.htm (kirish sanasi 25/05/2024).

(9). Testsov, S.V. 17-asr G'arbiy Yevropa epistolografiyasini o'rganish masalalari. 2018 [elektron resurs]. Kirish rejimi: https://cyberleninka.ru/article/n/voprosy-izucheniya-zapadnoevropeyskoy-epistolografii-xvii-veka?ysclid =lvavi9esw076985445 (kirish sanasi 31.03.2024)

(10). Hölderlin, F. Hyperion yoki Gretsiyadagi Hermit. 1995 [elektron resurs]. Kirish rejimi, https://proza.ru /2012/06/23/442 (kirish sanasi: 25/05/2024).

(11). Gyote, I.V. Yosh Verterning iztiroblari. 1885 [elektron resurs]. Kirish rejimi: https://docs.yandex.ru/docs /view?tm=1717748815&tld=ru&lang=ru&name=Suffering%20young%20Werther.pdf&text (kirish sanasi 25.05.2024).

(12). Meigo: o: jannat. 2012 [elektron resurs]. Kirish rejimi: https://historyofjapan.co.uk/wiki_cats/meigo-orai/ (kirish sanasi 27.05.2024).

(13). Teikin orai. 2013 [elektron resurs]. Kirish rejimi: https://edoflourishing.blogspot.com/2013/03/teikin-orai-textbooks.html (kirish sanasi 27.05.2024).

(14). Bessonova, Y.R. Yapon tilining epistolyar uslubi tarixiy jihatdan. 2012 [elektron resurs]. Kirish rejimi, https://cyberleninka.ru/article/n/epistolyarnyy-stil-yaponskogo-yazyka-v-istoricheskom-aspekte?ysclid=lvb46ziraj 967356350 (kirish sanasi 04/01/2024).

Zaripov Abduvahob Suyundikovich (Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi; qovunchi1989@gmail.com)

AVTOBIOGRAFIK ASARLARNING GNOSEOLOGIK TADQIQI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada avtobiografik asarlarning turli davr va mintaqalardagi tadqiqi, turli olimlarning ilmiy qarashlari xronologik jihatdan izchillik bilan tadqiq qilingan. Avtobiografik asarlarning yetarlicha darajada ko'p ijod etilgani, lekin ularning ilmiy tahlillarining kamligi bu mavzuning muammoli va o'rganishning dolzarb tomonlari borligidan dalolat beradi. Ilmiy maqolada ilk bor ularning umumlashtirilib qiyosiy tahlilga tortilgani xarakterlidir, unda nomlari qayd etilgan adabiyotshunoslar va ularning manbalari keyingi davr adabiyotshunoslik vakillari uchun ham o'rganish obyekti bo'la oladi.*

Kalit so'zlar: *avtobiografik, biografik, memuar, gnoseologik tahlil, G'arb ilm-fani, avtoportret, postklassik falsafa, tavba-tazarru, ruhiy-psixologik rivojlanish.*

Зарипов Абдувахоб Суюндикович (Самаркандский государственный университет независимый исследователь; qovunchi1989@gmail.com)

ЭПИСТЕМОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ АВТОБИОГРАФИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

Аннотация. *В данной статье изучаются автобиографические произведения разных периодов и регионов, научные взгляды разных ученых хронологически согласуются. Тот факт, что создано достаточное количество автобиографических произведений, но отсутствие их научного анализа, свидетельствует о том, что данная тема имеет проблемные и актуальные аспекты изучения. Характерно, что впервые в научной статье они обобщены и подвергнуты сравнительному анализу, учёные-литературоведы, имена которых в ней упоминаются, и их источники могут стать объектом изучения для представителей литературоведения следующего периода.*

Ключевые слова: *автобиографический, биографический, мемуарный, гносеологический анализ, западная наука, автопортрет, постклассическая философия, покаяние, психологическое развитие.*

Zaripov Abduvahob Suyundikovich (Samarkand State University independent researcher; qovunchi1989@gmail.com)

EPISTEMOLOGICAL STUDY OF AUTOBIOGRAPHICAL WORKS

Annotation. *In this article, the study of autobiographical works in different periods and regions, the scientific views of different scientists are chronologically consistent. The fact that a sufficient number of autobiographical works have been created, but the lack of their scientific analysis, indicates that this topic has problematic and relevant aspects of study. It is characteristic that for the first time in a scientific article they were summarized and subjected to a comparative analysis, the literary scholars whose names are mentioned in it and their sources can be the object of study for the representatives of literary studies of the next period.*

Key words: *autobiographical, biographical, memoir, epistemological analysis, Western science, self-portrait, postclassical philosophy, repentance, psychological development.*

Kirish. Avtobiografiya janri qadimgi zamonlardan boshlanganiga qaramay, dastlab, u faqatgina muallifning hayoti va ijodini o‘rganish uchun manba, shaxsiy hujjat sifatida qaralgan. Vaqt o‘tishi bilan hujjatli xarakterdagi asarlar, jumladan, avtobiografiyani idrok etish sezilarli o‘zgarishlarga uchradi. Hujjatli adabiyot endi “past” janr hisoblanmay qo‘ydi, inson shaxsi esa uning tarixiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlarini inobatga olgan holda tahlil qilina boshladi.

Inson shaxsiyatiga bo‘lgan qiziqishning ortib borishi avtobiografiyaning mustaqil adabiy janr sifatida rivojlanishini rag‘batlantirmoqda. Mualliflar keng auditoriyaga mo‘ljallangan badiiy avtoportretlar yaratishga tobora ko‘proq intilayotgani kuzatilmoqda. Shu tariqa, avtobiografiya kundalik hujjatdan san’at asariga aylanib, badiiy adabiyotga xos xususiyatlarni yanada ko‘proq o‘zida mujassam etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Avtobiografik adabiyot so‘nggi o‘n yilliklar davomida tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. G‘arb fanida bu janrga qiziqishning eng yuqori cho‘qqisi 1950 –1970-yillarga to‘g‘ri keldi. Bu E.Bryuss, J.Gyusdorf, F.Lejen, J.Mey, J.Olni, J.Starobinskiy va boshqa olimlarning asarlarida o‘z aksini topdi. O‘shandan beri avtobiografiyaning janr va amaliyot shakli sifatidagi tabiati, uning subyektivlik tushunchalari bilan aloqadorligi, shuningdek, avtobiografik korpus ichidagi matn va tarkibiy ko‘rinishlari va ularning transformatsiyasi haqidagi munozaralar dolzarb bo‘lib qolmoqda va bugungi kungacha davom etmoqda.

So‘nggi yigirma yil mobaynida rus gumanitar fanlari vakillari avtobiografik adabiyotni o‘rganishga faol kirishdilar. Ilmiy jamiyat G‘arb nazariyotchilarining asosiy asarlari bilan tanishib chiqdi, shuningdek, V.D.Altashina, Y.P.Grechanaya, I.V.Kabanova, N.A.Nikolina, I.L.Savkina va boshqa mualliflar tomonidan rus va xorijiy adabiyot asosida yaratilgan original tadqiqotlar taqdim etildi. Bu yillar davomida ko‘plab mamlakatlarda son-sanoqsiz maqolalar, jamoaviy to‘plamlar, monografiyalar, dissertatsiyalar va ixtisoslashtirilgan jurnallar nashr etildi. Bundan tashqari, mavzuga oid ilmiy anjumanlar muntazam ravishda o‘tkazilib kelinmoqda va avtobiografik matnlarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi ilmiy hamjamiyatlar faol faoliyat yuritmoqda.

Avtobiografik asarlarga qiziqishning ortishi postklassik falsafadagi tushunchaviy o‘zgarishlarga javoban yuzaga keldi. Bu yerda til va ijtimoiy amaliyotlarga bog‘liq subyekt tushunchasi inson shaxsining o‘z-o‘zidan qimmatli ekanligi haqidagi an’anaviy tasavvurga qarshi qo‘yilmoqda. Adabiyotshunoslikda bu o‘zgarishlar “muallif o‘limi” g‘oyasida o‘z aksini topdi, bu g‘oya muallif niyatlarini e’tiborga olmaydigan strukturalistik hamda poststrukturalistik matn tahlili usullarida amalga oshirildi. Shunga qaramay, av-tobiografik matnlarning o‘ziga xos xususiyati ularni biografik muallifning haqiqiy shaxsiyati bilan bog‘lashni talab etadi. Muallifning vazifasini o‘quvchi bajarishi tendensiyasini yengish, shuningdek, badiiy asarni uning yaratuvchisi niyatlarini qayta tiklashsiz to‘liq tushunish mumkin emasligini tan olish zamonaviy adabiyotshunoslik nazariyalarida (“théories d’auteur”) muhim yo‘nalishga aylandi. Bu uslubiy o‘zgarishlar insonni tarixiy voqelikning bir qismi sifatida, avtobiografik matnlarni esa uning mavjudligi va asrlar davomidagi tarixiy o‘zgarishlarning muhim dalili sifatida tushunishga qaratilgan gumanitar burilishning yangi bosqichini aks ettiradi.[1]

Tadqiqot metodologiyasi. Avtobiografiyani o‘rganish uchun nazariy asos allaqachon yetarli darajada yaxshi ishlab chiqilgan. Biroq janr qonun-qoidalariga to‘liq mos kelmaydigan matnlar haqida so‘z borganda (yaratilish davri yoki boshqa xususiyatlar tufayli), sohada terminologik chalkashliklar yuzaga keladi.

Avtobiografiya va tavba-tazarru qadimdan bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan, chunki diniy tavba-tazarruda, ko‘pincha, avtobiografik unsurlar uchraydi (masalan, Mark Avreliyning “Mulohazalar”i va Avliyo Avgustinning “E’tiroflar”i). Uyg‘onish va keyingi ma’rifatparvarlik davrining rivojlanishi bilan avtobiografiya dunyoviy hayotning tashqi sharoitlari o‘zgarishini va shaxsning ichki rivojlanishini aks ettiruvchi keng o‘z-o‘zini anglash va tahlil qilish maydoniga aylandi. Hozirgi kunda ma’lum darajada faqat muqaddas xususiyatidan uzoqlashib borayotgan tavba-tazarruga kelsak, u, baribir, o‘ziga xos samimiylik chuqurligini saqlab qolmoqda. Biroq amalda avtobiografiya va tavba-tazarru, ko‘pincha, shunchalik birlashib ketadiki, ularni ajratib olish nihoyatda qiyin bo‘ladi.

Memuar-avtobiografik nasrning tur va janr tizimidagi o‘rnini aniqlab olish anchagina murakkab vazifa. Memuar adabiyoti o‘zining o‘ziga xos xususiyatlarini aniq belgilashga qarshilik ko‘rsatadi. U ko‘proq turli xil tarkibiy qismlarni, jumladan avtobiografik, memuar, falsafiy, tarixiy va publitsistik unsurlarni o‘z ichiga olgan janrlararo tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Chunonchi, L.A.Levitskiy memuarlarda hikoyachilikning sintetik xususiyatini ta’kidlaydi, bu bir asar ichida ko‘plab janrlar – tarixiy nasr, kundalik, biografi-

[1]Зарецкий Ю.П. История субъективности и история автобиографии: важные обновления. Неприкосновенный запас. 2012, № 3 (83), с. 218–232; 228 с.

ya, adabiy portret xususiyatlarini birlashtirish imkonini beradi.[1] Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda shuni aytmoqchimizki, mazkur janrlarda namoyon bo'layotgan hikoyachilik, o'z navbatida, xalq og'zaki ijodidan namuna olgan.

Soha tadqiqotchilari turli terminlarni afzal ko'rsalar-da, ular memuarlar adabiyotiga mansub asarlarning asosiy xususiyatlarini aniqlashda, umuman olganda, yakdil fikrga keladilar. Bu xususiyatlarga quyidagilar kiradi: matnning aqliy-ruhiy va hissiy markazini tashkil etuvchi yagona egotsentrik ongning mavjudligi; muallif, hikoyachi va bosh qahramonning bir shaxsda mujassamlashganligi; vaqt bo'yicha hikoya qilishning boshidan oxirigacha harakatlanish tamoyili sifatida retrospektiva, bunda nutq egasining xotira faoliyati asos bo'lib xizmat qiladi.[2] Ushbu xususiyatlar memuarlar adabiyotining barcha janrlari tegishli, xususan, avtobiografiya, biografiya, memuar, tarixiy xotira va boshqalar.

G.G.Yelizavetina memuar matnini tahlil qilish uchun quyidagi mezonlarni taklif etadi: 1) janr belgilari nuqtayi nazaridan; 2) voqelikka munosabati va faktografik aniqlik darajasini aniqlash nuqtayi nazaridan; 3) asarning badiiy va hujjatli jihatlari nuqtayi nazaridan; 4) muallif shaxsiyatini aks ettiruvchi material nuqtayi nazaridan. Shuningdek, u memuar matnlarning eng batafsil tasnifini ham taqdim etadi: avtobiografiya (faqat o'zi haqidagi hikoya); e'tirof, tavba (xuddi shunday hikoya, lekin yanada ochiqroq bayon etilgan); memuarlar (ko'proq siyosat va tarixga oid); xotiralar (xronologik aniqlik va izchillikka qat'iy rioya qilmasdan, turli xil materiallarni o'z ichiga oladi).[3]

G.G.Yelizavetina nazariyasiga ko'ra, avtobiografik nasr muallifning ichki dunyosini, uning kechinmalari va o'zgarishlarini o'rganishga qaratilgan bo'lsa, memuarlar esa tashqi voqealar va taassurotlarni qayd etib, dunyo va odamlarni tasvirlashga urg'u beradi.[4] Mazkur fikrni to'laqonli qo'llab-quvvatlaymiz. Shuning uchun ijodkorning ruhiy-psixologik evolutsiyasini avtobiografik asarlar misolida tadqiq etmoqdamiz.

Tahlil va natijalar. Avtobiografiyada o'z "men"ining tarixi sifatida muallifning ilk xotiralari, xarakterning shakllanishi haqidagi fikrlari, shaxsning yaxlitligi yoki ziddiyatliligi haqidagi mulohazalari muhim ahamiyat kasb etadi:[5] "Bizning o'z-o'zimizni anglashimiz nimadan boshlanishini hech kim eslamaydi, men ham eslolmayman. Faqat shuni taxmin qilamanki, bu barcha uchun ranglar va shakllarda adashishni to'xtatib, ba'zi narsalarni kuzatish va eslab qolishni boshlagan paytdan boshlanadi. Boshqacha aytganda, bizning "men"imiz va "men emas"imiz ikkita alohida dunyoga: ichki va tashqi, ruhiy va moddiy dunyoga asos solgan paytdan boshlanadi".[6] XIX asr avtobiografik nasrida hikoyachining o'tmishdagi "men"i izchil ravishda muallif ichki nigohining obyekti sifatida talqin etila boshlaydi, bu esa izchil o'z-o'zini obyektivlashtirish jarayonidan dalolat beradi.[7] Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qildikki, avtobiografiya turli adabiy an'analarning tutashgan nuqtasida vujudga kelganligi sabali u madaniy va falsafiy dunyoni yagicha ifoda etmoqda. Xususan, mazkur janr orqali kitobxon ijodkor "men"ining ruhiy kechinmalarini his etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shuningdek, kitobxonga ijodkor bilan birgalikda ijtimoiy-madaniy, ma'naviy, ruhiy-psixologik ulg'ayish imkoniyatini berdi. Bu esa avtobiografiya orqali ijodkorning ruhiy-psixologik rivojlanish jarayonini o'rganishga yo'l ochib beradi.

Avtobiografik matnning poetikasi badiiy tuzilmaning asosiy elementlari bilan belgilanadi, ular orasida quyidagilar ajralib turadi:

1. Makon-zamon munosabatlari – voqealar dinamikasini aks ettiruvchi va ularning hikoya qilish vaqt qatlamlari bilan bog'liqligini ko'rsatuvchi xronotopni tashkil etish usullari.

2. Subyekt tashkiloti – matndagi turli nuqtai nazar va rollarning o'zaro ta'siri.

3. Muallif-hikoyachi obrazi – muallif shaxsiyatini uning narrativi orqali ifodalash, bu uning o'zini anglashi va hayotiy tajribasini talqin qilish xususiyatlarini ochib berishga imkon yaratadi.

---

[1]Левицкий Л.А. Мемуары. Литературный энциклопедический словарь. Под общ. ред.В.М.Кожевникова, П.А. Николаева, М., "Сов. энциклопедия", 1987, с. 216.

[2]Нюбина Л.М. Воспоминание и текст. Смоленск, СГПУ, 2000, с. 13.

[3]Елизаветина Г.Г. Последняя грань в области романа. Русская мемуаристика как предмет литературоведческого анализа. "Вопросы литературы", 1982, № 10, с. 148, 154–159.

[4]Елизаветина Г.Г. «Последняя грань в области романа». Русская мемуаристика как предмет литературоведческого анализа. "Вопросы литературы", 1982, № 10, с. 148, 154–159.

[5]Самофалова Е.А. Жанровые признаки семейной хроники в женской мемуарно-автобиографической прозе второй половины XIX века. Дис. … канд. филол. наук, Курск, 2015, с. 219; с. 24.

[6]Полонский Я.П. Старина и моѐ детство. Проза. М., 1988, с. 272.

[7]Самофалова Е.А. Жанровые признаки семейной хроники в женской мемуарно-автобиографической прозе второй половины XIX века. Дис. … канд. филол. наук, Курск, 2015, с. 219; с. 24.

Shunday qilib, qo‘llanilayotgan yondashuv avtobiografik bayonning badiiy tuzilmasini har tomonlama tahlil qilishni ta’minlaydi, uning mazmuniy va estetik jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, jahon adabiyotshunoslarining turli xil yondashuvlari va tadqiqlari avtobiografik asarlarning xilma-xil ranglarini ochib berdi. Zamonaviy adabiyotshunoslik zargarlari ham hanuz yuqoridagi ilmiy tushunchalarning ilmiy asoslarini tadqiq etish bilan band. Keyingi avlod adabiyotshunoslik vakillarining vazifalari ham avtobigrafik asarlarning mazmun xususiyatlarini kengroq ochib berish bo‘lib qolaveradi. Chunki har bir ilmiy mavzu ulkan ummondirki, uning kashf etilmagan qo‘riqlari bisyor. Avtobiografik asarlarning gnoseologik tadqiqi ham har doim o‘zining bir muncha uzoq va tahlilga molik tomonlari bilan bizni o‘ziga tortaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Зарецкий Ю.П. История субъективности и история автобиографии, важные обновления. Неприкосновенный запас. 2012, № 3 (83), с. 218–232; 228 с.

(2). Левицкий Л.А. Мемуары. Литературный энциклопедический словарь. Под общ. ред. В.М.Кожевникова, П.А.Николаева. М., “Сов. энциклопедия”, 1987, с. 216.

(3). Нюбина Л.М. Воспоминание и текст. Смоленск, СГПУ, 2000, с. 13.

(4). Елизаветина Г.Г. «Последняя грань в области романа»: Русская мемуаристика как предмет литературоведческого анализа. “Вопросы литературы”, 1982, № 10, с. 148, 154–159.

(5). Самофалова Е.А. Жанровые признаки семейной хроники в женской мемуарно-автобиографической прозе второй половины XIX века. Дис. … канд. филол. наук, Курск, 2015, с. 219; с. 24.

(6). Полонский Я.П. Старина и моѐ детство. Проза. М., 1988, с. 272.

(7). Самофалова Е.А. Жанровые признаки семейной хроники в женской мемуарно-автобиографической прозе второй половины XIX века. Дис. …канд. филол. наук, Курск, 2015, с. 219; с. 24.

Xo‘janova Uringul Smayilovna (O‘zbekiston, Toshkent, UzDJTU; hojanovauringul01@gmail.com)

MAJOZIY O‘XSHATISHNING FUNKSIYALARI

Annotatsiya. *Tavsiya qilinayotgan maqolaning maqsadi – majoziy o‘xshatish lingvistik hodisa sifatida o‘rganishda kognitiv yondashuvdan foydalanish tajribasi va uning funksiyalari hamda ularning kognitiv jarayonlar (kontseptsiyalash va tasniflash). Asosiy e’tibor turli fanlarni birlashtirgan muhim muammolarga hamda turli sohalarda kognitiv yondashuvni rivojlantirishning*

Kalit so‘zlar: *mantiqiy o‘xshatish, o‘xshatish agenti, o‘xshatish referenti, ritorik figura, tasviriy va baholash funksiyalar, satirik funksiya, aforistik funksiya.*

Ходжанова Урингуль Смайиловна (Узбекистан, Ташкент, УзГУМЯ; hojanovauringul01@gmail.com)

ФУНКЦИИ ОБРАЗНОГО СРАВНЕНИЯ

Аннотация. *Цель предлагаемой статьи – обобщить на основе краткого обзора опыт использования когнитивного подхода к изучению языковых явлений в качестве образного сравнения и его функции и их взаимосвязи с когнитивными процессами (прежде всего, концептуализацией и категоризацией) в отечественной и мировой науке, дать общее представление о современном состоянии. В центре внимания находятся ключевые проблемы, решение которых объединяет разные дисциплины, а также современные тенденции развития когнитивного подхода в разных научных областях, фундаментальных и прикладных исследованиях.*

Ключевые слова: *логическая аналогия, имитационный агент, референт аналогии, риторическая фигура, образная и оценочная функции, сатирическая функция, аформистическая функция.*

Khojanova Uringul Smayilovna (Uzbekistan, Tashkent, UzSWLU; hojanovauringul01@gmail.com)

FUNCTIONS OF IMAGINATIVE COMPARISON

Annotation. *The target of the proposed article – to summarize on the basis of a brief review of the experience of using the cognitive approach to the study of linguistic phenomena as simile and its functions and their relationships with cognitive processes (first of all, conceptualization and categorization) in domestic and world science. The focus is on key problems, the solution of which unites different disciplines, as well as current trends in the development of cognitive approach in different scientific fields, fundamental and applied research.*

Key words: *logical analogy, imitation agent, analogy referent, rhetorical figure, figurative and evaluative functions, satirical function, aphoristic function.*

Kirish. Gumanitar fanlar taraqqiyotidagi hozirgi bosqichni xarakterlash uchun, eng avvalo, tadqiqotchilarning insonning kognitiv faoliyatiga va uning natijalariga e’tibor qaratish lozim. Tilshunoslikda o‘x-